Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdulla Oripov. Haj daftari – Hikmat sadolari. library.ziyonet.uz/

(2). Иброҳим Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. Тошкент, “Шарқ”, 2007, 336-бет.

(3). Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. Тошкент, Тошкент Ислом университети, 2015, 164-бет.

(4). Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ислом тарихи. Биринчи китоб. Тошкент, “Ҳилол-нашр”, 2025, 512-бет.

(5). Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири/таржима ва тафсир муаллифи. Абдулазиз Мансур. Самарқанд, Имом Бухорий халқаро илмий тадқиқот маркази нашриёти, 2021, 624-бет.

(6). Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV–XV асрлар). Филол. фан. д-ри (DsC)... дисс., Самарқанд, 2019, 284-бет.

Obidjonova Ma’suma (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent, O‘zbekiston; E-mail: obidjonovamasuma001@gmail.com; ORCID ID: 0009-0002-0280-8305)

ILMIY FANTASTIKADA ILMIY TAFAKKUR VA BADIIY TO‘QIMA MUNOSABATI

Annotatsiya. *Maqolada ilmiy fantastikada ilmiy tafakkur va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati tadqiq etiladi. Mavzuning dolzarbligi ilmiy fantastikaning badiiy tabiatini mazkur ikki omilning uyg‘unligi asosida aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktural va janr-tahliliy metodlardan foydalanildi. Ilmiy g‘oyaning fantastik voqelikka aylanish jarayoni hamda ilmiy farazning badiiy to‘qima bilan munosabati tahlil qilindi. Natijada ilmiy tafakkur va badiiy to‘qimaning o‘zaro mutanosibligi ilmiy fantastika poetikasini shakllantiruvchi muhim omil ekani asoslandi. Shuningdek, fantastik voqelikning o‘quvchi tomonidan mantiqiy va tabiiy qabul qilinishini ta’minlovchi shuuriy ishonch tushunchasining ahamiyati ochib berildi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy fantastika, ilmiy tafakkur, badiiy to‘qima, fantastik g‘oya, fantastik voqelik, ilmiy faraz, fantastik narrativ, shuuriy ishonch.*

ВЗАИМООТНОШЕНИЕ НАУЧНОГО МЫШЛЕНИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВЫМЫСЛА В НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКЕ

Аннотация. *В статье исследуется взаимосвязь научного мышления и художественного вымысла в научной фантастике. Актуальность темы обусловлена необходимостью определения художественной природы научной фантастики через взаимодействие данных компонентов. В исследовании применены сравнительно-типологический, структурный и жанрово-аналитический методы. Анализируется процесс художественного воплощения научной идеи и взаимосвязь научной гипотезы с художественным вымыслом. Обосновано, что их соотношение является важным фактором формирования поэтики научной фантастики. Раскрывается также значение понятия «сознательная убеждённость», обеспечивающего логичное и естественное восприятие фантастической реальности читателем.*

Ключевые слова: *научная фантастика, научное мышление, художественный вымысел, фантастическая идея, фантастическая реальность, научная гипотеза, фантастический нарратив, сознательная убеждённость.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN SCIENTIFIC THINKING AND ARTISTIC INVENTION IN SCIENCE FICTION

Annotation. *The article examines the relationship between scientific thinking and artistic invention in science fiction. The relevance of the study is determined by the need to define the artistic nature of science fiction through the interaction of these two components. The study employs comparative-typological, structural, and genre-analytical methods. It analyzes the transformation of scientific ideas into fantastic reality and the relationship between scientific hypotheses and artistic invention. The findings demonstrate that their correlation is an important factor in shaping the poetics of science fiction. The article also highlights the significance of “conscious conviction” in ensuring the reader’s logical and natural perception of fantastic reality.*

Keywords: *Science fiction, scientific thinking, artistic invention, science-fictional idea, fantastic reality, scientific hypothesis, science-fictional narrative, conscious conviction.*

Kirish. Adabiy janrlar taraqqiyotini kuzatganda, ayrim janrlarning o‘z chegaralarini nisbatan aniq belgilab olgani, ayrimlarining esa boshqa janrlar bilan tutashib, o‘ziga xos murakkab shakllarda namoyon bo‘layotganiga duch kelamiz. Ilmiy fantastika ana shunday murakkab janrlardan biridir. Uning tarkibida il-

miy qarash, badiiy xayol, hayotiy kuzatish, falsafiy mushohada, ijtimoiy muammo va inson ruhiyati bir-biri bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Shu bois ilmiy fantastika haqida gapirganda, uning tashqi belgilarini sanab o‘tish bilan kifoyalanish qiyin. Asarning ilmiy fantastikaga mansubligini belgilash uchun unda tasvirlangan g‘ayrioddiy hodisaning qanday paydo bo‘lgani, qanday badiiy vazifa bajarayotgani va eng muhimi, muallifning unga qanday munosabatda bo‘layotganini kuzatish kerak bo‘ladi.

Keyingi yillarda yozilgan o‘zbek tilidagi maqolalarda ham, ma’lumki, badiiy asarning mohiyatini birgina mavzu yoki sujet orqali belgilashdan ko‘ra, uning badiiy-estetik qurilishi, obrazlar tizimi va muallif tafakkuridagi o‘rni masalasiga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Zero, adabiyotshunoslikda “janr” tushunchasi asarning faqat tashqi shaklini emas, uning voqelikni o‘zlashtirish va badiiy ifodalash usullarini ham anglatadi. Shu ma’noda, ilmiy fantastikaning janr tabiatini aniqlash ham undagi alohida bir belgini topish emas, balki bir-biri bilan bog‘liq bir necha badiiy hodisaning munosabatini kuzatishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ilmiy fantastikani, odatda, fan va texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq badiiy hodisa sifatida tushunamiz. Bunday qarashning o‘z asosi bor. Zero, ilmiy kashfiyotlar, texnik yangiliklar, koinotni o‘rganish, insonning biologik imkoniyatlarini kengaytirish, sun’iy intellekt, vaqt va makon haqidagi ilmiy tasavvurlar ilmiy fantastika syujetining muhim manbalaridan hisoblanadi. Biroq masalaga chuqurroq nazar tashlansa, ilmiy fantastik asarning badiiy qimmati unda nechta ilmiy ma’lumot berilgani yoki qancha texnik yangilik tilga olingani bilan belgilanmasligi ayon bo‘ladi. Chunki ilmiy ma’lumotning o‘zi hali badiiy adabiyot emas. Ilmiy fantastikada fan badiiy tafakkurning predmetiga aylanganida, ilmiy faraz inson va jamiyat hayotidagi muayyan masalani yoritishga xizmat qilganidagina o‘zining estetik vazifasini bajaradi.

Amerikalik adabiyotshunos R.Skoulzning “strukturaviy fabulatsiya” haqidagi qarashlari shu jihatdan e’tiborlidir. Olim fantastik tasvirni mavjud voqelikdan butkul uzilgan xayol mahsuli sifatida emas, balki mavjud dunyoni yangicha anglashga imkon beruvchi badiiy hodisa sifatida talqin qiladi. Uning ta’rificha, strukturaviy fabulatsiya “ilmiy metodlarga asoslangan ilmiy faoliyat ham, haqiqiy ilm-fanning o‘rnini bosuvchi hodisa ham emas, balki zamonaviy ilm-fan oqibatlari orqali anglash mumkin bo‘lgan umumbashariy hodisotlarni badiiy tadqiq etish”dir [1]. Fan insoniyatga xizmat qiladimi yoki insonning o‘zi yaratgan kuch uning ustidan hukmronlik qila boshlaydimi? Ilmiy fantastikaning badiiy savollari, ko‘pincha, ana shunday nuqtalarda tug‘iladi.

Shuning uchun R.Skoulzning “strukturaviy fabulatsiya” tushunchasini ilmiy fantastikaning to‘la muqobili sifatida qabul qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki bu tushuncha ilmiy fantastika doirasidan tashqaridagi ayrim nomimetik asarlarni ham qamrab olishi mumkin [2]. Biroq olimning qarashlari ilmiy fantastikadagi ilmiy omilning vazifasini anglash uchun juda muhim. U ilmiylikni tayyor bilim sifatida emas, insoniy vaziyatni badiiy tadqiq etish vositasi sifatida ko‘rsatadi. Demak, masala ilmiy fantastikada fan bor-yo‘qligida emas, fan badiiy fikrni qanday harakatga keltirayotganida.

Rus fantastikashunosligida A.Britikovning qarashlari ham shu masalaga boshqa bir tomondan yondashadi. Tadqiqotchi ilmiy fantastikaning o‘ziga xosligini undagi ilmiy materialning mavjudligi bilan cheklamaydi, balki ilmiy va badiiy bilish usullarining o‘zaro munosabatiga bog‘laydi. Uning fikricha, janrning o‘ziga xosligi aynan ilmiy fantastika metodlarining integratsiyasida namoyon bo‘ladi [3]. Bu o‘rinda “integratsiya” tushunchasiga alohida e’tibor berish kerak. Ilmiy fantastik asarda ilmiy tafakkur bilan badiiy tafakkur yonma-yon turmaydi. Ular asarning ichki qurilishida bir-biriga ta’sir qiladi. Ilmiy faraz badiiy sujetga aylanadi, ilmiy muammo insoniy konflikt bilan bog‘lanadi, texnik imkoniyat esa qahramon taqdiridagi muhim burilishga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, ilmiy bilim badiiy obrazga kirganidan keyin o‘zining dastlabki shaklida qolmaydi. U yozuvchi tafakkuridan o‘tib, estetik mazmun kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Agar fantastik g‘oyaning badiiy qiymatini uning keyinchalik ilmiy jihatdan tasdiqlangan-tasdiqlanmagani bilan o‘lchasak, adabiyotning o‘ziga xosligini unutib qo‘ygan bo‘lamiz. Zero, adabiyot ilmiy bashoratlar ro‘yxati emas. Yozuvchi olim kabi tajriba o‘tkazmaydi, lekin u ilm-fan oldiga qo‘ygan savollarni inson taqdiri orqali ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ilmiy fantastikaning kuchi ham, ko‘pincha, “kelajakda nima bo‘ladi?” degan savoldan ko‘ra, “inson yangi sharoitda qanday bo‘ladi?” degan savolga yaqin turadi. Fantastik tasvirning o‘zi ham tarixiy jihatdan o‘zgarib turadi. Bir davr kishisi uchun g‘ayrioddiy tuyulgan hodisa boshqa bir davrda tabiiy holga aylanishi mumkin. T.Chernysheva fantastik obrazni belgilashda uning obyektiv voqelikka munosabati bilan birga, muayyan davr inson tafakkuri tomonidan qanday qabul qilinishini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Olimaning fikricha, “Inson tafakkuri yaratgan u yoki bu hodisani fantastik deb belgilashda ikki jihatni hisobga olish zarur: birinchisi, uning obyektiv voqelikka mosligi yoki, aniqrog‘i, nomosligi, ikkinchisi esa uning muayyan davr inson tafakkuri tomonidan qanday qabul qilinishidir” [4]. Bu fikr ilmiy fantastika tarixini tushunishda katta ahami-

yatga ega. Chunki fan taraqqiyoti bilan insonning "mumkin" va "mumkin emas" haqidagi tasavvuri ham o'zgarib boradi. Kecha xayol mahsuli bo'lgan ayrim hodisalar bugun hayotimizning oddiy bir qismiga aylangan. Sun'iy intellekt bunga yaqqol misol bo'la oladi. XX asr ilmiy fantastikasida inson bilan muloqot qiluvchi yoki mustaqil qaror qabul qiluvchi intellektual mashina, ko'pincha, kelajak haqidagi fantastik tasavvur sifatida berilgan bo'lsa, bugun bunday texnologiyalar kundalik hayotimizga tobora chuqur kirib kelmoqda.

Tahlil va natijalar. Ana shu jihat bizni ilmiy fantastikaning janr chegaralarini belgilashda muhim bo'lgan boshqa bir masalaga, ya'ni, fantastik hodisaning badiiy asoslanishi masalasiga olib keladi. Chunki ilmiy fantastikada g'ayrioddiy hodisa shunchaki "bo'lib qoldi" tarzida paydo bo'lmaydi. Uning qandaydir sababi, sharti, ichki mantig'i bo'ladi. Bu mantiq har doim ham bugungi fan tomonidan tasdiqlangan bo'lishi shart emas. Ammo o'quvchi uni asar doirasida qabul qila olishi kerak. Ana shu qabul jarayoni esa ilmiy fantastikaning boshqa fantastik shakllardan farqlanishini tushuntirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ilmiy fantastikaning janr chegaralarini belgilash masalasida faqat "ilmiy" va "fantastik" tushunchalarini yonma-yon qo'yish bilan kifoyalanish mumkin emas. Ilmiy fantastikaning janr chegaralarini belgilashda uni fentezi, sehrli realizm, mifologik fantastika kabi hodisalardan ajratish masalasi alohida ahmiyatga ega. Chunki mazkur badiiy shakllarning barchasida mavjud voqelikning odatiy chegaralaridan tashqariga chiqish, g'ayrioddiy hodisalarni tasvirlash, real hayotda kuzatilmaydigan obraz va vaziyatlarni yaratish holati uchraydi. Biroq bir xil ko'rinadigan bu hodisalarning badiiy asoslari bir xil emas. Gap, demak, fantastikaning bor-yo'qligida emas, fantastik hodisaning qaysi tafakkur tizimi asosida badiiylashtirilganida.

Fentezi bilan ilmiy fantastika o'rtasidagi farqni belgilashga uringan tadqiqotlarda ko'pincha "mumkin" va "mumkin emas" mezoniga murojaat qilinadi. E.N.Kovtun ham fantastika shakllarini farqlashda hozirgi ilmiy tasavvurlar nuqtayi nazaridan, kelajakda yoki prinsipial jihatdan mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarni ilmiy fantastikaga, mutlaqo mavjud bo'lolmaydigan hodisalarni esa fenteziga mansub deb hisoblaydi [10]. Bunday tasnif bir qarashda ancha qulay. Chunki u o'quvchiga ikki xil badiiy olam o'rtasidagi farqni tez ilg'ash imkonini beradi. Ammo adabiyot tarixiga murojaat qilsak, masala bunchalik sodda emasligi ayon bo'ladi. Fan taraqqiyoti doimiy harakatda. Bugungi ilmiy bilim ertangi kun uchun boshlang'ich nuqtaga aylanadi. Bugun tasavvur qilish qiyin bo'lgan narsa ertaga texnik imkoniyatga aylanishi mumkin. Demak, "mumkin" va "mumkin emas" chegarasi o'zgarmas emas. Shu sababli E.N.Kovtunning yuqoridagi mezoniga to'liq qo'shilish qiyin. Zero, muayyan davr ilmiy bilimiga tayangan holda "mutlaqo mumkin emas" deb baholangan hodisaning keyinchalik voqelikka aylanish ehtimoli mavjud. Biroq bundan fentezi va ilmiy fantastika o'rtasidagi farq butunlay yo'qoladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, farqni boshqa nuqtadan izlashga to'g'ri keladi. Shu ma'noda, ilmiy fantastikani "ilmiy g'oya + fantastik voqea" tarzidagi oddiy formula bilan tushuntirib bo'lmaydi. Ilmiy g'oya badiiy voqelikka kirganidan keyin u o'zining dastlabki ilmiy shaklidan uzoqlashadi. Masalan, sun'iy intellekt haqidagi ilmiy tasavvur asarda inson va mashina munosabatiga, insonning o'z yaratgan mavjudoti oldidagi mas'uliyatiga, ong va tafakkurning chegaralariga oid muammolarga aylanishi mumkin. Vaqt mashinasi esa mexanik qurilma bo'lib qolmay, insonning o'tmish va kelajak haqidagi tasavvurini sinovdan o'tkazuvchi badiiy vositaga aylanadi. Koi-notga parvoz esa shunchaki texnik yutuq emas, insonning noma'lumlik qarshisidagi holatini ochuvchi vazifani bajarishi mumkin. Demak, ilmiy fantastikada ilmiy hodisaning badiiy funksiyasi uning o'zidan ko'ra muhimroq. Bu xususiyat o'zbek fantastikashunosligi uchun ham begona emas. R.Ibrohimovaning fantastik adabiyotning taraqqiyoti va uslubiy izlanishlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida fantastika voqelikdan butkul uzilgan xayol mahsuli sifatida emas, badiiy tafakkurning voqelik bilan murakkab munosabatidan tug'iladigan hodisa sifatida qaraladi [6]. Bu qarashni ilmiy fantastikaga tatbiq etadigan bo'lsak, fantastik farazning mavjud voqelikdan uzoqlashishi uning voqelik bilan aloqasini uzmaydi. Aksincha, muallif, ko'pincha, mavjud hayotdagi muammoni g'ayrioddiy sharoitga ko'chirish orqali uni yanada keskinroq ko'rsatadi.

Badiiy adabiyotning imkoniyati ham shunda. Real hayotda odatiy ko'rinadigan bir muammo fantastik vaziyatga ko'chirilganda uning mohiyati ochilib qolishi mumkin. Oddiy sharoitda sezilmaydigan axloqiy ziddiyat g'ayrioddiy vaziyatda keskin namoyon bo'ladi. Insonning odatiy sharoitdagi qarori bilan favqulodda vaziyatdagi qarori o'rtasidagi farq uning xarakteridagi yashirin jihatlarni yuzaga chiqaradi. Shu sababli fantastika real hayotdan qochish emas, ba'zan unga boshqa tomondan qarash usuli bo'lib xizmat qiladi.

Fantastik nasrda badiiy motivning o'rnini o'rgangan Sh.Yuldoshovaning fikrlari shu nuqtada muhim. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "Badiiy motiv adabiy asar badiiy tuzilishining asosiy omillaridan biri bo'lib, syujet rivoji, qahramon xarakterining shakllanishi va asarning umumiy badiiy-falsafiy yo'nalishini bel-

gilashda muhim rol o‘ynaydi” [7]. Demak, asarda biror motivning mavjudligi emas, uning syujet, obraz va g‘oyaviy yo‘nalishdagi vazifasi muhim. Bu xulosani ilmiy fantastikaga nisbatan qo‘llasak, masala yanada ravshanlashadi. Asarda kosmik parvoz motivi bo‘lishi mumkin. Ammo u shunchaki voqealarni boshqa makonga ko‘chirish uchun xizmat qilsa, uning ilmiy fantastikadagi funksiyasi bir xil bo‘lmaydi. Agar kosmik makon orqali insonning yolg‘izligi, Yerga munosabati yoki insoniyatning kelajagi haqida falsafiy masala qo‘yilsa, motivning badiiy yuklamasi o‘zgaradi. Xuddi shuningdek, robot obrazi ham o‘z-o‘zidan ilmiy fantastikaning belgisi emas. Robot shunchaki texnik qurilma sifatida qolishi mumkin, biroq u insonning o‘zligini anglashiga, ongning tabiati haqidagi savollarga yoki axloqiy mas’uliyat muammosiga olib kirsa, badiiy obraz sifatidagi qiymati ortadi.

Fantastik voqelik qanchalik g‘ayrioddiy bo‘lmasin, u, baribir, inson tajribasi bilan bog‘lanmasa, badiiy jihatdan to‘liq namoyon bo‘la olmaydi.

Demak, ilmiy fantastikadagi fantastik makon ham, ilmiy faraz ham, texnik vosita ham o‘z-o‘zicha maqsad emas. Ular insonni anglashga xizmat qilganida badiiy mazmun chuqurlashadi. Shu ma’noda, ilmiy fantastikaning ilmiyligi uning “ilmiy” ko‘rinishida emas, ilmiy tafakkur yordamida badiiy muammoni qo‘ya olishida. Bu xususiyat ilmiy fantastikaning prognostik imkoniyatini ham belgilaydi. Biroq prognostika tushunchasini ham ehtiyotkorlik bilan qo‘llash lozim. Ilmiy fantastika kelajakni aniq bashorat qiluvchi adabiyot emas. Uning vazifasi ertangi kunning tayyor manzarasini berishdan ko‘ra, bugungi ilmiy-texnik jarayonlarning ehtimoliy oqibatlarini badiiy tasavvur qilishdir. A.Britikov ilmiy fantastikaning prognostik imkoniyatini ilmiy va badiiy bilish usullarining tutashuvi bilan bog‘laydi, biroq fantastik g‘oyani ilmiy haqiqat bilan tenglashtirmaydi [3]. Shu jihatdan, ilmiy fantastikaning “kelajakni oldindan aytish” xususiyatidan ko‘ra, kelajak haqida o‘ylashga majbur etish xususiyati muhimroqdir. Yozuvchi kelajakning aniq qanday bo‘lishini bilmaydi. Ammo bugungi fan, texnika va ijtimoiy munosabatlarning qaysi yo‘nalishda rivojlanishi mumkinligi haqida savol qo‘yadi. Ana shu savol badiiy tasavvurni harakatga keltiradi.

Ilmiy fantastika bilan bog‘liq yana bir muhim masala uning tarixiy o‘zgaruvchanligidir. J.Rayder ilmiy fantastikani “tarixiy va o‘zgaruvchan” hodisa sifatida tavsiflab, unda barcha davrlar uchun birdek amal qiladigan yagona xususiyatni topish qiyinligini ta’kidlaydi [5]. Tadqiqotchining bu qarashi janrga qat’iy va o‘zgarmas qolip bilan yondashishdan saqlanishga undaydi. Haqiqatan ham, XIX asr ilmiy fantastikasi bilan XXI asr ilmiy fantastikasini bir xil mezon asosida baholash qanchalik to‘g‘ri? Bir davrda yangi ilmiy g‘oya bo‘lgan narsa boshqa davrda allaqachon o‘zlashtirilgan bilimga aylanishi mumkin. Insonning koinot haqidagi tasavvuri, texnika imkoniyatlari, biologik jarayonlarni boshqarish haqidagi qarashlari o‘zgargani sari ilmiy fantastikaning badiiy materiali ham yangilanadi. Janrning o‘zgarishi uning zaifligi emas. Aksincha, uning hayotiyligi ham shunda. I.Chicheriy-Ronayning “ilmiy fantastiklik” tushunchasi ham shu masalani boshqa yo‘sinda yoritadi. Tadqiqotchi ilmiy fantastiklikni turli vosita va uslublarda namoyon bo‘ladigan, dunyoni ilmiy fantastika nuqtayi nazaridan tasavvur qilish usuli sifatida talqin qiladi [6]. Bu yerda “ilmiy fantastika” bilan “ilmiy fantastiklik”ni aynanlashtirmaslik kerak. Birinchisi janrni anglatsa, ikkinchisi badiiy tafakkurdagi muayyan xususiyatning namoyon bo‘lishini anglatishi mumkin. Shunday ekan, boshqa janrga mansub asarda ham ilmiy fantastiklikning ayrim unsurlari uchrashi ehtimoldan xoli emas.

Mana shu jihat ilmiy fantastikaning janr chegaralarini aniqlashdagi eng murakkab nuqtalardan biridir. Chegara qayerda tugaydi-yu, tutashuv qayerda boshlanadi? Asar ilmiy fantastikadan fenteziga, fentezidan mifologik fantastikaga yoki sehrli realizmga qaysi nuqtada o‘tadi? Buni bitta belgi bilan ko‘rsatib bo‘lmaydi.

Bizningcha, bunday chegarani izlashda, avvalo, uch narsaga e’tibor berish lozim: ilmiy tafakkurning asardagi mavqeyi, fantastik hodisaning badiiy asoslanishi va mazkur hodisaning sujet hamda obrazlar tizimidagi vazifasi**.** Bularning birortasi alohida holda yetarli emas. Ularning o‘zaro munosabati janrning ichki qiyofasini belgilaydi.

Xulosa va takliflar. Shu nuqtada ilgari surilgan “shuuriy ishonch” tushunchasi ham o‘z mazmunini topadi. Bu atama fantastik hodisaga real hayotdagi ehtimoli tufayli ishonishni emas, asar yaratgan badiiy olamdagi hodisalarning o‘quvchi tomonidan izchil va tabiiy qabul qilinishini anglatadi.

Biroq shuuriy ishonchning o‘zi ham ilmiy fantastikaning yagona mezoni emas. Fentezi ham o‘z ichki qonuniyatlariga ega va shu qonuniyatlar asosida o‘quvchida ishonch uyg‘otadi. Farq shundaki, ilmiy fantastikadagi bunday ishonchning ichki asosi ilmiy tafakkur bilan bog‘lanadi. Ya’ni, o‘quvchi “bu hodisa haqiqiy hayotda mavjud” deb emas, “bu asar yaratgan dunyoda bu hodisaning mavjudligi asoslangan” deb qabul qiladi.

Shunday ekan, ilmiy fantastikaning janr tabiati birgina ilmiy farazda ham, fantastik tasvirda ham, kelajak manzarasida ham emas. Ularning o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tafakkur fantastik fa-

razga asos beradi; fantastik faraz syujet harakatini yuzaga chiqaradi; badiiy to‘qima bu hodisalarni insoniy mazmun bilan birlashtiradi. Natijada o‘quvchi ongida ichki mantiqqa ega badiiy olam vujudga keladi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy fantastika ilm-fan yutuqlarini badiiy tarzda bayon qiladigan adabiyot emas; u ilmiy tafakkur vositasida inson, jamiyat va borliqning ehtimoliy holatlarini badiiy tadqiq etadigan janrdir. Uning janr chegarasi esa qat’iy belgilar yig‘indisi bilan emas, ilmiy tafakkur, fantastik tasvir va badiiy to‘qimaning asar ichidagi o‘zaro munosabati bilan belgilanadi. Bunday munosabat o‘quvchida shuuriy ishonchni yuzaga keltirganidagina fantastik faraz oddiy xayoliy hodisadan badiiy voqelikka aylanadi. Ana shu nazariy asos keyingi tadqiqotlarda ilmiy fantastikaning fantastik narrativi va badiiy to‘qima bilan munosabati, shuningdek, ushbu munosabatning sujet va obrazlar tizimida qanday namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бритиков А.Ф. Отечественная научно-фантастическая литература (1917–1991 годы). Кн. 1: Научная фантастика – особый род искусства. М., 2005, 308 с.

(2). Чернышева Т.А. Природа фантастики. Иркутск, изд-во Иркутского университета, 1984, 336 с.

(3). Csicsery-Ronay I. Jr. The Seven Beauties of Science Fiction. Middletown, Wesleyan University Press, 2008, 323 p.

(4). Ибрагимова Р.М. Ўзбек фантастикасида услубий изланишлар. Тошкент, “Фан”, 1987, 92-бет.

(5). Karim B. Ruhiyat alifbosi: adabiy-ilmiy maqolalar. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018, 364-bet.

(6). Ковтун Е.Н. Поэтика необычайного: художественные миры фантастики, волшебной сказки, утопии, притчи и мифа. М., изд-во Московского университета, 1999, 308 с.

(7). Rieder J. On Defining SF, or Not: Genre Theory, SF, and History // Science Fiction Studies. 2010, vol. 37, № 2, p. 191–209.

(8). Scholes R. Structural Fabulation: An Essay on Fiction of the Future. Notre Dame: University of Notre Dame Press, 1975, 174 p.

(9). Yuldoshova Sh. Fantastik nasrda badiiy motivning adabiy-estetik funksiyasi (Rey Bredberi va Isajon Sulton ijodi misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2025, 24-bet.

(10). Obidjonova M. Ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari. Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari. 2025, vol. 1, 1-son.

Qodirjonova Iqbola Bahodir qizi (Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi (PhD); nizamovaiqbola@yandex.com)

BOLA OBRAZINI YARATISHDA ICHKI MONOLOG VA ONG OQIMI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bola obrazini badiiy talqin qilishda ichki monolog hamda ong oqimi uslubining qo‘llanilishi o‘zbek va anglo-amerika adabiyoti misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Bola psixologiyasini chuqur va ishonarli aks ettirish zamonaviy bolalar nasrining muhim badiiy vazifalaridan biri bo‘lib, bu borada milliy va jahon adabiyotshunosligidagi tajribalarni qiyoslash orqali yangi nazariy xulosalar chiqarish imkoniyati mavjudligi tadqiqot dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqot natijasida o‘zbek va anglo-amerika yozuvchilarining asarlarida ichki monolog va ong oqimi usullarining o‘ziga xos badiiy funskiyalari, o‘xshash hamda farqli jihatlari aniqlanadi. Maqoladan olingan xulosalarning ilmiy ahamiyati bola obrazi tipologiyasini boyitishda, amaliy ahamiyati bolalar adabiyoti va adabiyot nazariyasi fanidan o‘quv materiali sifatida foydalanilishi mumkinligida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *bola obrazi, o‘zbek adabiyoti, anglo-amerika adabiyoti, ong oqimmi, ichki monolog, qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy-estetik tafakkur.*

Кодиржонова Икбола Баходир кизи (Ташкентский Международный университет Химии, старший преподаватель (PhD); nizamovaiqbola@yandex.com)

ВНУТРЕННИЙ МОНОЛОГ И ПОТОК СОЗНАНИЯ ПРИ СОЗДАНИИ ОБРАЗА РЕБЁНКА

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ применения приёмов внутреннего монолога и потока сознания при художественной интерпретации образа ребёнка на материале узбекской и англо-американской литературы. Актуальность исследования обусловлена тем, что глубокое и достоверное отражение детской психологии является одной из важных художественных задач современной детской прозы, а сопоставление национального и мирового литературоведческого опыта открывает возможности для новых теоретических выводов в данной области. В результате исследования выявлены специфические художественные функции, а также сходства и различия приёмов внутреннего монолога и потока сознания в произведениях узбекских и англо-*